

## USHLAB TURISH MUDDATLARINI TAKOMILLASHTIRISH: O'ZBEKISTON VA ISPANIYA QONUNCHILIGI QIYOSIY TAHLILI

**Ibragimov Otabek Ismoiljon o'g'li**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti  
"Xalqaro huquq" fakulteti 2-bosqich talabasi.

**E-mail: [ibragimovotabek0607@gmail.com](mailto:ibragimovotabek0607@gmail.com)**

**Soliyev dilshod Baxtiyor o'g'li**

Ilmiy rahbar.

JIDU Xalqaro huquq va ommaviy huquq fanlari kafedrası katta o'qituvchisi.

**E-mail: [dsoliyev9610@gmail](mailto:dsoliyev9610@gmail)**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.20280201>**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksidagi<sup>1</sup> ushlab turish muddatlari masalasi qiyosiy huquqshunoslik metodologiyasi asosida o'rganiladi.

Xususan, O'zbekistonning 48 soatlik ushlab turish muddati Ispaniyaning 72 soatlik modeli bilan taqqoslanib, amaldagi qonunchilikdagi kamchiliklari ochib beriladi. Tadqiqotda inson huquqlari va samarali jinoyat-protsessual faoliyatni muvozanatlash nuqtai nazaridan 226-moddaga<sup>2</sup> o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish zarurati asoslanadi hamda aniq normativ taklif ishlab chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** jinoyat-protsessual huquq, ushlab turish, muddat, qiyosiy huquqshunoslik, inson huquqlari, Ispaniya qonunchiligi, huquqiy isloh.

**Abstract.** This article examines the issue of detention periods in the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan using comparative legal methodology. Specifically, Uzbekistan's 48-hour detention period is compared with Spain's 72-hour model, revealing shortcomings in the current legislation. The study substantiates the need to amend and supplement Article 226 from the perspective of balancing human rights and effective criminal procedural activities, and develops a specific normative proposal.

**Keywords:** criminal procedure law, detention, time limits, comparative jurisprudence, human rights, Spanish legislation, legal reform.

**Аннотация.** В данной статье на основе методологии сравнительного правоведения исследуется вопрос сроков задержания, предусмотренных. В частности, 48-часовой срок задержания, установленный в Узбекистане, сопоставляется с 72-часовой моделью, действующей в Испании, а также выявляются недостатки действующего законодательства. В исследовании с точки зрения обеспечения баланса между правами человека и эффективностью уголовно-процессуальной деятельности обосновывается необходимость внесения изменений и дополнений в статью 226 и разрабатывается конкретное нормативное предложение.

**Ключевые слова:** уголовно-процессуальное право, задержание, срок, сравнительное правоведение, права человека, законодательство Испании, правовая реформа.

<sup>1</sup> <https://lex.uz/docs/111460#254639>

<sup>2</sup> <https://lex.uz/docs/111460#254639>

Jinoyat-protsessual huquq – jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasini o'tkazish bilan bog'liq faoliyatni tartibga soluvchi tartib-qoida va normalarning qonunda mustahkamlangan tizimini, ya'ni jinoyat ishi yurituvchi vazifalari amalga oshiriladigan zarur huquqiy tartib-taomillarni ifodalaydi. Ushbu soha huquqning eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, u nafaqat davlatning jinoyatga qarshi kurash mexanizmini, balki ayblanuvchilar va gumonlanuvchilarning huquq va erkinliklarini himoya qilish tizimini ham belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgach, 1994-yilda qabul qilingan Jinoyat-protsessual kodeksi (bundan buyon JPK deb yuritiladi) O'zbekistonning zamonaviy huquqiy rivojlanishining asosini tashkil etdi. Biroq ushbu kodeks o'zining kelib chiqishi jihatidan sobiq SSSRning jinoyat-protsessual huquqiga asoslanganligi sababli, uning ayrim normalari bugungi demokratik talablar va xalqaro standartlarga to'liq javob bermaydi. Shu bois, keyingi yillarda kodeksga ko'plab o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi, ammo islohotlar jarayoni hali yakunlanmagan.

Ushbu tadqiqot aynan shu muammoning bir jihatiga – ushlab turish muddatlari masalasiga qaratilgan. Maqolaning asosiy maqsadi O'zbekiston JPK 226-moddasida<sup>3</sup> belgilangan 48 soatlik ushlab turish muddatining yetarlilik darajasini xalqaro tajriba, xususan Ispaniya qonunchiligi misolida tahlil qilish va ilmiy asoslangan isloh takliflarini ishlab chiqishdan iborat. Bunday qiyosiy yondashuv nafaqat mavjud kamchiliklarni aniqlashga, balki ularni bartaraf etishning samarali yo'llarini topishga ham ko'maklashadi.

Jinoyat-protsessual huquqdagi ushlab turish instituti jahon huquqshunosligida keng o'rganilgan mavzu hisoblanadi. Xalqaro huquq doirasida Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1966-yilda qabul qilingan “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakti”ning 9-moddasida shaxsning erkinlik va xavfsizlik huquqi mustahkamlangan bo'lib<sup>4</sup>, ushbu norma bo'yicha qamoqqa olingan shaxs zudlik bilan sud oldiga olib borilishi lozim. “Inson huquqlari bo'yicha Yevropa konvensiyasi”ning 5-moddasi ham shu mazmundagi qoidalarni o'z ichiga oladi.<sup>5</sup>

O'zbekistonda jinoyat-protsessual huquq sohasidagi tadqiqotlar asosan milliy olimlar tomonidan olib borilgan. Jumladan, professor R. Qodirov va boshqalar tergov harakatlarining huquqiy tartib-qoidalarini o'rgangan bo'lsa<sup>6</sup>, huquqshunos N. Xo'jayev ushlab turish institutining nazariy asoslarini tahlil qilgan. Biroq qiyosiy huquqshunoslik metodidan foydalanib, xorijiy davlatlar tajribasini O'zbekiston qonunchiligi bilan solishtirgan tadqiqotlar hali yetarli darajada emas.

Ispaniya hukuqshunosi Jose Pardo Geigening 2026-yil aprel oyida chop etilgan maqolasida Ispaniyadagi ushlab turish muddatining inson huquqlari nuqtai nazaridan asoslanishi batafsil yoritilgan.<sup>7</sup>

<sup>3</sup> <https://lex.uz/docs/111460#254639>

<sup>4</sup> <https://www.ohchr.org/ru/instruments-mechanisms/instruments/international-covenant-civil-and-political-rights>

<sup>5</sup> [https://www.echr.coe.int/documents/d/echr/convention\\_ENG](https://www.echr.coe.int/documents/d/echr/convention_ENG)

<sup>6</sup> Qodirov, R. (2019). O'zbekiston jinoyat protsessual huquqi. Zweigert, K. & Kotz, H. (1998). Introduction to Comparative Law (3rd ed.). Oxford: Clarendon Press.

<sup>7</sup> Pardo Geige, J. (2026, aprel 3). How Long Can a Police Detention Last in Spain? Best Lawyers. <https://www.bestlawyers.com/article/how-long-can-a-police-detention-last-in/7569>

U 72 soatlik muddatning belgilanishi amaliyotdagi obyektiv zaruriyatdan kelib chiqqanligini ta'kidlab, dam olish kunlari va bayram davrlari bilan bog'liq muammolarni hal etishdagi ahamiyatini alohida ko'rsatib o'tgan.<sup>8</sup>

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, ushlab turish muddatlari bo'yicha xalqaro amaliyotda yagona standart mavjud emas. Germaniyada bu muddat 48 soat, Fransiyada 24 soat, ba'zi hollarda 96 soatgacha, Buyuk Britaniyada esa odatda 24 soat, maxsus hollarda 96 soatgacha etib belgilangan. Ispaniyadagi 72 soatlik muddat esa Yevropa mamlakatlaridagi o'rtacha ko'rsatkichga yaqin turadi va amaliyotda eng maqbul variantlardan biri sifatida baholanadi.

Ushbu tadqiqotda asosiy tahlil usuli sifatida qiyosiy huquqshunoslik metodi qo'llanilgan.

Qiyosiy metod huquqshunoslikda turli davlatlarning huquqiy tizimlari, normalari va institutlarini bir-biri bilan taqqoslash yo'li orqali umumiy qonuniyatlarni, o'xshashliklar va farqlarni aniqlashga qaratilgan. Bu metod huquqiy islohotlar uchun eng maqbul modellarni belgilashda keng qo'llaniladi.

Tadqiqotda qo'llangan asosiy metodlar quyidagilardan iborat:

1) Normativ tahlil – O'zbekiston JPK 226-moddasi va Ispaniya Jinoyat-protsessual kodeksining tegishli normalarini matni jihatidan tahlil qilish;

2) Qiyosiy tahlil – ikki davlat qonunchiligidagi ushlab turish muddatlarini miqdoriy va sifatijihatdan solishtirish;

3) Huquqiy modellashtirish – tahlil natijalari asosida yangi normativ taklif ishlab chiqish.

Bundan tashqari, rasmiy huquqiy hujjatlar, ilmiy maqolalar va xalqaro tashkilotlarning hisobotlaridan birlamchi manba sifatida foydalanildi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 226- moddasigumonlanuvchini ushlab turishning asoslari, tartibi va muddatlarini belgilaydi<sup>9</sup>. Mazkur modda bo'yicha ushlab turish muddati shaxs amalda ushlangan paytdan e'tiboran ko'pi bilan 48 soatni tashkil etadi. Zarur va yetarli asoslar mavjud bolganda sudning qarori bilan ushbu muddat yana 48 soatga uzaytirilishi mumkin. Muddat kalendar soatlari bo'yicha hisoblab, dam olish kunlari, bayram kunlari va tungi vaqt ham shu muddatga kiritiladi.

Qonunchilikdagi ushbu tartibning amaliyotdagi tatbiqini tahlil qilsak, bir qator muammolar ko'zga tashlanadi. Birinchidan, 48 soatlik muddat ko'pincha tergov harakatlarini to'liq amalga oshirish uchun yetarli bo'lmaydi. Ayniqsa, murakkab jinoyat ishlari, jinoiy guruhlar faoliyati bilan bog'liq ishlar yoki ekspertiza o'tkazishni talab etadigan holatlarda bu muddat qisqalik qiladi.

Natijada tergov organlari ham muddat uzaytirishdan majburiy ravishda foydalanadi, bu esa protsessual mablag'larning keraksiz sarflanishiga olib keladi.

Ikkinchidan, dam olish kunlari va bayram kunlarida tergovchi, surishtiruvchi yoki prokuror bilan bog'lanish imkoniyati cheklanadi. Shu sababli 48 soatlik muddat amalda yanada qisqarib, tergov samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Uchinchidan, muddat yetishmasligi tufayli ayrim hollarda ushlab tutilgan shaxs suddan sanksiya olinmasdan ozod qilinishga majbur bo'linadi, bu esa jinoyatga qarshi kurashning samaradorligini kamaytiradi.

<sup>8</sup> Pardo Geige, J. (2026, aprel 3). How Long Can a Police Detention Last in Spain? Best Lawyers. <https://www.bestlawyers.com/article/how-long-can-a-police-detention-last-in/7569>

<sup>9</sup> <https://lex.uz/docs/-111460#-5305163>

Ispaniya Jinoyat-protsessual kodeksining 303-306-moddalari<sup>10</sup> va Ispaniya Konstitutsiyasining 17-moddasi<sup>11</sup> ushlab turish tartibini tartibga soladi. Ispaniya qonunchiligiga ko'ra, politsiya tomonidan ushlab turish muddati 72 soatni tashkil etadi. Agar jinoyat terrorizm bilan bog'liq bo'lsa, ushbu muddat qo'shimcha ravishda yana 48 soatga, ya'ni, jami 120 soatgacha uzaytirilishi mumkin. Ispaniyada ham muddat kalendar kunlari bilan hisoblanadi.

Ispaniya 72 soatlik muddatni qabul qilishdagi asosiy maqsad inson huquqlarini kafolatlagan holda jinoyat-protsessual amaliyotdagi obyektiv muammolarni hal etishdan iborat bo'lgan.

Xususan, Ispaniyada shanba va yakshanba dam olish kunlari hisoblanib, bayramlarda 2-4 kun ish bo'lmaydi. Bunday sharoitda 48 soatlik muddat sud sanksiyasi olish va zarur tergov harakatlarini o'tkazish uchun yetarli bo'lmaydi. Jose Pardo Geigening xulosasiga ko'ra, 72 soatlik muddat tergov organlari faoliyatidagi muammolarni oldini olish bilan birga, ushlab tutilgan shaxsning asossiz uzoq vaqt ozodlikdan mahrum etilishi xavfini ham kamaytiradi.

Ispaniyaning bu tajribasi shuni ko'rsatadiki, muddat uzaytirilishi avtomatik ravishda inson huquqlarini buzish demak emas. Aksincha, to'g'ri belgilangan va qat'iy nazorat ostida qo'llaniladigan muddat huquqiy davlatning muhim kafolati bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shuni ham ta'kidlash lozimki, Ispaniyada ushbu muddatlar sud nazorati bilan birgalikda amal qiladi, ya'ni har qanday uzaytirish sudning ruxsati bilan amalga oshiriladi.

O'zbekiston va Ispaniya qonunchiligini qiyosiy tahlil qilish bir necha muhim xulosalarga olib keladi. O'zbekistonda ushlab turish muddati 48 soat, Ispaniyada esa 72 soatni tashkil etadi.

Ikki davlatda ham muddat kalendar soatlari bo'yicha hisoblanadi, dam olish va bayram kunlari hisobga olinadi. Biroq muhim farq shundaki, Ispaniyada asosiy muddat 72 soatdan iborat bo'lib, uzaytirish zarur hollarda amalga oshiriladi; O'zbekistonda esa asosiy muddat 48 soat, ko'p hollarda esa uzaytirish ham kerak bo'lib qoladi.

Bundan tashqari, Ispaniyada muddat uzaytirishning aniq va og'ir shartlari belgilangan bo'lib, bu inson huquqlari kafolatini kuchaytiradi. O'zbekistonda esa «zarur va yetarli asoslar» iborasining aniq mezonlari qonunda to'liq belgilanmagan, bu esa amaliyotda turlicha talqin qilinishga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, ikki tizimning asosiy farqi miqdoriy emas, balki sifatiiy xususiyatga ega: Ispaniyada muddat belgilashda amaliy zaruriyat va huquqiy kafolatlar o'rtasidagi muvozanat aniqroq saqlangan.

Yuqorida bayon etilgan tahlil va qiyosiy tadqiqot natijalari asosida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 226-moddasiga quyidagi o'zgartirishlar kiritilishi tavsiya etiladi:

«Ushlab turish muddati shaxs amalda ushlangan paytdan e'tiboran ko'pi bilan yetmish ikki soatni tashkil etadi. Surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror tomonidan zarur va yetarli asoslar taqdim etilganda ushlab turish sudning qarori bilan qo'shimcha ravishda qirq sakkiz soatga uzaytirilishi mumkin. Ushlab turish muddati kalendar soatlari bo'yicha hisoblanadi. Dam olish kunlari, bayram kunlari va tungi vaqt ushbu muddat hisobiga kiritiladi.»

<sup>10</sup> Ispaniya Jinoyat-protsessual kodeksi (Ley de Enjuiciamiento Criminal), 303-306-moddalar. Ispaniya Adliya vazirligi.

<sup>11</sup> Ispaniya Konstitutsiyasi, 17-modda. 1978-yil 27-dekabrda qabul qilingan. Ispaniya Parlamenti, 1978 <https://www.senado.es/web/conocersenado/normas/constitucion/detalleconstitucioncompleta/index.html?lang=en>

Ushbu taklif bir necha jihatdan asoslanadi. Birinchi jihat – amaliy zaruriyat. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, juda ko'p hollarda muddat yetmaganligi tufayli sudning qarori bilan 48 soatga uzaytirish zarur bo'ladi. Bu holat o'z-o'zidan asosiy muddatning yetarli emasligini ko'rsatadi.

Muddatni 72 soatga oshirish surishtiruvchi, tergovchi va prokurorga zarur tergov harakatlarini to'liq va sifatli bajarish imkonini beradi.

Ikkinchi jihat - protsessual iqtisodiyot. Har safar muddat uzaytirish uchun sudga murojaat etish ham vaqt, ham energiya talab qiladi. Asosiy muddatni 72 soatga o'zgartirish orqali bunday murojaat ko'plab holatlarda zarur bo'lmay qoladi, bu esa sud va tergov organlari yuklamasini kamaytiradi.

Uchinchi jihat - inson huquqlari kafolati. Ko'rinishdan muddat uzaytirish inson huquqlarini cheklagandek tuyulsa-da, aslida to'g'ri belgilangan muddat chegaralari inson huquqlarini yaxshiroq himoya qiladi. Cheksiz uzaytirish imkoniyatiga ega bo'lgan qisqa muddat o'rniga, aniq belgilangan uzunroq muddat va qat'iy nazorat tizimi inson erkinligini suiiste'moldan yaxshiroq saqlaydi. Ispaniya tajribasi buni amaliyotda isbotlab bergan.

To'rtinchi jihat – xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish. Yevropa mamlakatlarining aksariyatida ushlab turish muddati 48 soatdan oshiq.<sup>12</sup> Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari qo'mitasining tavsiyalari ham «zudlik bilan» iborasini konkretrroq muddatlar bilan belgilashni tavsiya etadi.<sup>13</sup> Shu nuqtai nazardan, 72 soatlik muddat xalqaro amaliyot bilan uyg'unlashadi.

Ushbu tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 226-moddasidagi 48 soatlik ushlab turish muddatining amaldagi holatda bir qator muammolarga sabab bo'layotganligini ko'rsatdi. Qiyosiy tahlil, xususan Ispaniya qonunchiligi bilan solishtirish, O'zbekiston uchun 72 soatlik asosiy muddat optimalroq yechim bo'lishi mumkinligini asoslaydi.

Taklif etilayotgan isloh nafaqat tergov organlari faoliyatini samaralashtiradi, balki inson huquqlari kafolatlarini ham kuchaytiradi. Biroq shuni ta'kidlash lozimki, muddat o'zgartirishining o'zi yetarli emas – bu bilan birga ushlab turish uchun zarur asoslarning aniq mezonlarini belgilash, sud nazoratini kuchaytirish va himoya huquqiga doir normalarni takomillashtirish ham zarur.

Kelajakdagi tadqiqotlarda O'zbekiston JPK ning boshqa muammoli jihatlarini – ekspertiza o'tkazish muddatlari, guvoh ifodalarini olish tartibi va boshqalarni xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday kompleks yondashuv O'zbekiston jinoyat-protsessual qonunchiligini xalqaro standartlar darajasiga ko'tarishga xizmat qiladi va huquqiy islohotlarning samaradorligini oshiradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. 22.09.1994-yilda qabul qilingan. Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2024.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 08.12.1992-yilda qabul qilingan (2023-yilda yangi tahrir qabul qilingan). Toshkent, 2023.

<sup>12</sup> European Court of Human Rights. Brogan and Others v. United Kingdom, Application No. 11209/84 (1988). Strasbourg.

<sup>13</sup> UN Human Rights Committee, General Comment No. 35 (2014): Article 9 (Liberty and Security of Person)

3. BMT Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakti. 16.12.1966-yilda qabul qilingan. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, 1966.
4. Yevropa inson huquqlari konvensiyasi. 04.11.1950-yilda imzolangan. Strasburg: Yevropa Kengashi, 1950.
5. Pardo Geige, J. (2026, aprel 3). How Long Can a Police Detention Last in Spain? Best Lawyers. <https://www.bestlawyers.com/article/how-long-can-a-police-detention-last-in/7569>
6. Ispaniya Jinoyat-protsessual kodeksi (Ley de Enjuiciamiento Criminal), 303-306-moddalar. Ispaniya Adliya vazirligi. Mavjud: <https://www.mjusticia.gob.es>
7. Ispaniya Konstitutsiyasi, 17-modda. 1978-yil 27-dekabrda qabul qilingan. Madrid: Ispaniya Parlamenti, 1978.
8. Xo'jayev, N. (2020). Jinoyat-protsessual huquqda ushlab turish instituti: nazariy va amaliy masalalar.
9. Qodirov, R. (2019). O'zbekiston jinoyat protsessual huquqi. Zweigert, K. & Kotz, H. (1998). Introduction to Comparative Law (3rd ed.). Oxford: Clarendon Press.
10. UN Human Rights Committee, General Comment No. 35 (2014): Article 9 (Liberty and Security of Person).
11. European Court of Human Rights. Brogan and Others v. United Kingdom, Application No. 11209/84 (1988). Strasbourg.